




# International Journal for Innovative Engineering and Management Research

A Peer Reviewed Open Access International Journal

www.ijiemr.org

## COPY RIGHT



**ELSEVIER**  
**SSRN**

**2020 IJIEMR.** Personal use of this material is permitted. Permission from IJIEMR must be obtained for all other uses, in any current or future media, including reprinting/republishing this material for advertising or promotional purposes, creating new collective works, for resale or redistribution to servers or lists, or reuse of any copyrighted component of this work in other works. No Reprint should be done to this paper, all copy right is authenticated to Paper Authors

IJIEMR Transactions, online available on 22nd Dec 2020. Link

<http://www.ijiemr.org/downloads.php?vol=Volume-09&issue=ISSUE-12>

**DOI: 10.48047/IJIEMR/V09/I12/65**

Title: INCREASING SPIRITUALITY IN THE FAMILY IS A KEY FACTOR IN RAISING A  
HEALTHY CHILD AND A HARMONIOUSLY DEVELOPED GENERATION

Volume 09, Issue 12, Pages: 354-359

Paper Authors

**Urokova Sharofat Saidkul kyz**



USE THIS BARCODE TO ACCESS YOUR ONLINE PAPER

To Secure Your Paper As Per **UGC Guidelines** We Are Providing A Electronic  
Bar Code



## OILA MANAVIYATINI YUKSALTIRISH – SOG'LOM BOLA VA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHNING ASOSIY OMILI

O'rəqova Sharofat Saidkul qizi

TerDU o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada milliy qadriyatlarimiz davomchisi – oila ma'naviyatini yuksaltirish – sog'lom bola va barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy omili ekanligi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, ma'naviyat, milliy g'urur, muhabbat, vatanparvarlik, sadoqat, iftixor, tarbiya, baxt, urf-odat va an'ana, qadriyat.

### ПОВЫШЕНИЕ ДУХОВНОСТИ В СЕМЬЕ - КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР В ВОСПИТАНИИ ЗДОРОВОГО РЕБЕНКА И ГАРМОНИЧНО РАЗВИТОГО ПОКОЛЕНИЯ

Урокова Шарофат Сайдкул кызы

Преподаватель ТерГУ

**Аннотация:** В статье подчеркивается, что продолжение наших национальных ценностей - повышение морального духа семьи - является ключевым фактором в воспитании здорового ребенка и гармонично развитого поколения.

**Ключевые слова:** семья, духовность, национальная гордость, любовь, патриотизм, верность, преданность, воспитание, счастье, обычаи, традиции и обряды, ценности.

### INCREASING SPIRITUALITY IN THE FAMILY IS A KEY FACTOR IN RAISING A HEALTHY CHILD AND A HARMONIOUSLY DEVELOPED GENERATION

Urokova Sharofat Saidkul kyzy

Teacher of Ter SU

**Annotation:** The article emphasizes that the continuation of our national values-increasing the morale of the family-is a key factor in the upbringing of a healthy child and a harmoniously developed generation.

**Keywords:** family, spirituality, national pride, love, patriotism, loyalty, devotion, upbringing, happiness, customs, traditions and rituals, values.

"Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo'lsang, baxtliman deyishga

haqqing bor. Faqat oilam emas xalqim baxtli bo'lsa men o'zimni baxtli deb bilaman" [1]- deya ta'kidlaydi



# International Journal for Innovative Engineering and Management Research

A Peer Reviewed Open Access International Journal

www.ijiemr.org

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev har safar ma'ruzalarida. Darhaqiqat, har bir oila ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Oilaviy munosabatlar alohida olingen har bir holatda o'ziga xos tomonlarga ega bo'ladi. Chunki, bu munosabatlar o'ziga xos ma'naviy qiyofaga ega bo'lgan kishilarning o'zaro ta'sirining natijasidir. Shunga ko'ra, oilaning bolaga ta'siri spesifik, o'ziga xos bo'lgani uchun, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishi ham o'ziga xos va takrorlanmasdir.

Bola o'z ota-onalarining xatti-harakatlari, butun hayotiy faoliyatlarini kuzatib yuradi. Shu tufayli narsa va hodisalarga ta'sir qilishga qodir bo'lgan faoliyatning subyekti sifatida o'z-o'zini anglay boshlaydi. Oila o'ziga xos hissiyotlar olamidan iborat bo'lib, unda ijobjiy va ba'zan salbiy his-tuyg'ular jamuljam bo'ladi. Ana shu boisdan bola hissiyotini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Agar oilada o'zaro hurmat va ishonch bilan birga, yaxshi kayfiyat asosidagi sog'lom muhit qaror topgan bo'lsa, bu bola ruhiyatiga, uning hissiyotiga ijobjiy ta'sir etishi tabiiydir.

Oila sharoitida bolalarda o'zgalarga nisbatan hamdardlik tuyg'ulari ham tarbiyalanadi. Chunki bola yoshligidanoq hayotda g'am-tashvishlar bilan quvonch-sevinchlar birga yurishligini anglab borishi kerak. Ota-onalar bolalarida jamiyatda va oilada kerakli ekanliklarini ilk bor his qilishni uyg'ota olsalar, insondagi bebafo xislat bo'lgan mehnat qilish quvonchidan bolani bahramand qilgan bo'ladilar.

Oiladagi maishiy turmushda bolaning ishtirok etishi ham axloqiy tarbiyaning muhim omili hisoblanadi. Chunki, bola hayoti asosan uy sharoitida o'tadi. Oila a'zolari o'rtasida muomala

madaniyati oilaviy tarbiyada muhim o'rinn o'ynaydi.

Ota-onalar ma'naviy jihatdan qanchalik boy bo'lsa, ular o'z farzandlariga nisbatan shu qadar jiddiy va mas'uliyatli munosabatda bo'ladilar. O'zlaridagi mavjud ma'naviy-axloqiy fazilatlarni farzandlari timsolida ko'rishni har qanday ota-onasi orzu qiladi.

Oilada milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish muhim rol o'ynaydi. Agar ota-onalar jamiyatimiz tomonidan oilaga, o'sib borayotgan avlod tarbiyasiga qo'yiladigan talabni bilsa, axloqiy tarbiya samarali bo'ladi; axloqiy tarbiyalash jarayonida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy o'zbek an'analaridan foydalilanadi; ota-onalar pedagogika va psixologiyaning zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda va oilaviy tarbiya masalalari bo'yicha Sharq mutafakkirlarining boy madaniy merosidan foydalangani holda o'zining pedagogik ma'lumotini doimo oshirib boradi.

Yurtboshimizning: «Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarrbiyaga alohida e'tibor berilmasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Ha bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman»-degan so'zlari fikrimizning yaqqol isbotidir.[2]

Oila va oilaviy tarbiya bugungi kunda dolzarb muammolardan biridir. Chunki, jamiyat aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat, ruhan boy avlodni tarbiyalashdan manfaatdor. Bunday avlod,



# International Journal for Innovative Engineering and Management Research

A Peer Reviewed Open Access International Journal

[www.ijiemr.org](http://www.ijiemr.org)

eng avvalo, ma'naviy-axloqiy jihatdan sog'lom va mustahkam oilada shakllanadi. Chunonchi oilani rivojlantirish va mustahkamlash uchun qilinadigan g'amxo'rlik kelajak avlod taqdiri bilan bog'liqdir. Har qanday jamiyatda ham buyuk davlatning barpo etilishi yoshlar qanday bo'lishlariga, ularning qanday tarbiya olishlariga bog'liq. Taniqli o'zbek pedagogigi Abdulla Avloniy «Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» deb yozgan edi. [3].

Milliy mafkuraning negizida yosh avlodni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash g'oysi yotadi. Mustaqillik ruhida tarbiyalash yoshlarni milliy g'urur, milliy iftixor, milliy ong va o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishni taqozo etadi. Oilada yosh avlodni ota-onasi namunasi, oila an'analari, shajarasi, kasb-kori, axloqiy-ma'naviy qadriyatları asosida tarbiyalash, ular ongida oilaga sadoqat, o'zaro mehrmuhabbat, hurmat hissini shakllantirish vositasida ularni oilaviy hayotga tayyorlash kutilgan natija beradi. Buning uchun ota-onalarni tarbiya jarayoniga tayyorlash maqsadida ota-onalar universitetlari ishini tiklash va takomillashtirish, umumta'lim maktablari, oliy va o'rta maxsus ta'lim mazmuniga «Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash» kursini kiritish maqsadga muvofiqdir. Ota-onalar va oila tarbiyasida metodik yordam beruvchi oila kutubxonasi seriyasidagi kitobchalar va maxsus «Oila» jurnali orqali, barcha yo'naliшlardagi oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga «Oila psixologiyasi va pedagogikasi» kursini joriy etish oilani namunali tarbiya maskaniga aylantirish vositasidir. Shunday qilib, Vatan muqaddasligini saqlash,

vatanparvarlik tuyg'usi bilan xalq, davlat, mamlakat rivojiga ulkan ulush qo'shish har bir fuqaroning jamiyat, kelajak avlod oldidagi burchidir. Bu burchni halol, pok, fidoyilik va jasorat bilan bajargan insongina haqiqiy vatanparvardir.

Yurtboshimiz aytganlaridek: «Shu aziz vatan barchamizniki, uni baxt-saodati, yorug' istiqboli, farovon kelajagi uchun yashash, kurashish, kerak bo'lsa jonni fido qilish shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson uchun baxtdir». Vatan kelajagi, xalqning baxt-saodati uchun milliy g'ururi yuksak inson kurashadi. Milliy g'urur esa milliy o'zlikni anglash bilan bevosita bog'liqdir. Zotan, milliy o'zlikni anglash - vatanparvarlikning yorqin namunasidir. Insoniyatning paydo bo'lishi bilan asta-sekin uning tili, urfodatlari, an'analari, dini, madaniyati; ezgulikni ifoda etuvchi axloq-odob normalari ham vujudga kela boshlagan. Ularning mazmunida xalqning hayot tarzi, ruhiyati, ma'naviyati, xulq-odobi mezonlari, kelgusi farovon turmush haqidagi orzu-o'ylari o'z aksini topgan, Davr sinovlaridan o'tgan ma'naviy va moddiy boyliklar mazmunan boyib, sayqallanib qadriyat darajasiga ko'tarilib kelmoqda. Shuning uchun ham har bir xalqning millatning o'z tarixi, u bilan bog'liq qadriyatları mavjud. Har bir xalqning o'z tili, ma'naviyati va ma'rifati, tabiat, axloq-odob normalari, din-e'tiqodi, tarixi, adabiyot va san'ati, madaniy yodgorliklari, o'ziga xos qadriyatları, urfodatlari, an'analari, biologik-fiziologik, psixologik xususiyatlari, ichki muhiti, ijtimoiy taraqqiyoti va shu kabilar millatning o'zligini tashkil qiladi. Milliy o'zlikni anglash esa har bir millatning, elatning o'z tarixi, moddiy boyligi, dini, madaniyati, adabiyoti, san'ati, axloqiy-



# International Journal for Innovative Engineering and Management Research

A Peer Reviewed Open Access International Journal

www.ijiemr.org

ma'naviy xulq-atvori, xatti-harakat mezonlari, urf-odat va an'analarini mazmun va mohiyatan bilish, ulardan faxrlanish hamda ularni shakl va mazmun jihatidan boyitish, kelgusi avlodlarga yetkazish, shuningdek ularni boshqa millatlarga namoyish etish ehtiyojining qudrati demakdir.

Milliy o'zlikni anglash o'zi dunyoga kelib o'sgan oilasi, mahallasi, Vatanini sevish, ota-onasi, qarindoshurug'lari, do'st-u birodarlari, xalqi, millatiga chuqur hurmat va ehtiromdir. Ularning shajarasi, o'tmish avlodajdodlari, kasb-kori, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarning mukammal bilish va ulardan faxrlanish hissi demakdir.

Xalq, Vatan manfaatlarini o'z manfaatlaridan yuqori qo'yish kerak bo'lsa, ularni har qanday dushmanlardan, salbiy ta'sirlardan himoya etish uchun jonne ham fido etish - o'zlikni yuksak darajaga ko'tarish demakdir. Millat, oila, vatan sha'ni, obro'-e'tibori, qadr-qimmati, hamiyati, g'ururi kamsitilgan, toptalgan vaqtida uni qo'riqlash, himoya etish uchun birlashish, kurashish o'zlikni anglaganlikning namunasidir.

Milliy o'zlikni anglash, millatning abadiyligini ta'minlovchi, uning moddiy va ma'naviy boyliklarini, manfaatlarini himoya etish, ko'z qorachig'idek asrash, umrboqiyligini ta'minlashda har bir fuqaroni ongli ravishda jipslashishga, birlashishga da'vat etuvchi, o'z mazmunida milliy g'urur, muhabbat, vatanparvarlik, sadoqat, iftixor kabi tushunchalarni mujassam etuvchi yuksak tuyg'udir.

Milliy o'zlikni anglash umuminsoniy qadriyatlarni inkor etish yoki boshqa millat ma'naviy va moddiy boyliklarini hurmat qilmaslik holatidan

uzoqroqdir. Aksincha, o'zga millat va xalqlarning tili, dini, moddiy va ma'naviy qadriyatlari, an'analarini bilish; hurmat qilish zamirida o'z milliy merosini shaklan va mazmunan boyitish o'zlikni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy o'zlikni anglash millatchilik, mahalliychilik kabi holatlardan butunlay yiroqdir. O'zligini anglagan inson hech qachon sotqinlikka, xiyonatga, razolatga qo'l urmaydi. [4]

O'zbek millati tarixida milliy istiqlol tantanasi tub burilish yasadi. Milliy o'zlikni anglash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Xalqimiz asrlar davomidagi ong, tafakkur qulligidan ozod bo'ldi. Sho'rolar tuzumi davrida o'z milliy ma'naviyatimiz, an'analarimiz, ruhiyatimiz, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarimiz umumsovet qozoniga qo'shilib, o'z qadr-qimmatini butunlay yo'qota boshlagan edi. Ularni sof milliy qadriyat tarzida saqlamoqchi, umrboqiyligini ta'minlamoqchi, shakl va mazmun jihatidan takomillashtirmoqchi, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalamoqchi bo'lgan millatimizning jasur farzandlari "xalq dushmani" yorlig'i bilan qatag'on qilindi, jisman yo'qtildi.

Shukrlar bo'lsinki, mamlakatimiz mustaqilligi va istiqlol in'om etgan buyuk ne'matlardan biri erkinlik va o'zligimizni anglash imkoniyati vujudga kelganligi bo'ldi.

O'zbek oilasida otaning o'ziga xos munosib o'rni bor. U oilaning sarbonidir. Otaning oiladagi o'rnini o'lchaydigan toshu-tarozi yo'q. Oilada otaning obro'-e'tibori qadrlanadi, farzandlar otaga suyanadi, ergashadi, ishonadi, faxrlanadi. Lekin oilada ota-oni qo'sh-ho'kiz. Ularni et bilan tirnoqday ajratib bo'lmaydi. Oilalar bir xil emas. Ularni bir qolipga



# International Journal for Innovative Engineering and Management Research

A Peer Reviewed Open Access International Journal

www.ijiemr.org

sig'dirish mumkin emas. Ba'zan otasiz qolgan farzandlarni onalar o'zлari ishlab bolalarni boqadi, o'zлari tarbiyalaydilar. Biroq unday oila farzandlari tarbiyasida qandaydir nuqsonlar uchraydi. Milliy mustaqillik sharoitida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy va ma'naviy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar tabiiy ravishda va qonuniy tarzda xalqning ravnaqiga yo'l ochdi, mustaqillikni mustahkamlashga samarali ta'sir ko'rsatdi. Jamiyat va oila mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog'liq. Oilada jamiyatning tub mohiyati o'z aksini topadi. Shu ma'noda, oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a'zosi oila bag'rida voyaga yetadi. Ijtimoiy munosabatlari o'zgartiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi. Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi.

Jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lomligi ko'p jihatdan oilaviy madaniyatga bog'liq. Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Oilada er va xotinning mavqeい, oilaviy munosabatlar xarakteri turli xalqlarda turlichadir. Mamlakatimiz milliy mustaqillik yillarda ma'naviy sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, oila qadriyatlarini, eng ilg'or an'analarini tiklashga qaratilgandir. Oila va ayol muqaddasligi O'zbekona qadriyatdir. Hadisi sharifda, Qur'oni Karim oyatlarida ona va ayolning muqaddasligi to'g'risidagi g'oyalar oilaviy munosabatlarni takomillashtirishida muhim ahamiyatga ega.

Zero, atoqli pedagogimiz Karimaxon Usmonovna o'zining "Oila

tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy fazilatlarning o'rni" nomli asarida aytganidek: "To'g'ri tarbiya – bizning baxtli kelajagimiz, yomon tarbiya – bizning keljakdag'i qayg'u-hasratlarimiz, ko'z yoshlarimiz, butun jamiyat oldidagi, butun mamlakat oldidagi aybimizdir".[5]

Darhaqiqat, oilaga e'tibor, ota-onas mas'uliyatini oshirish, milliy qadriyatlarni davomiyligini ta'minlash, oila ma'naviyatini yuksaltirish – sog'lom bola va barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy omili hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN

### ADABIYOTLAR

1. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" Toshkent -2019-y, 3-bo'lim.
3. "Oila – ijtimoiy tarbiyaning obyekti sifatida" Qosimova A./Xalq ta'limi jurn. 2009. №6-91-93b
3. "Sog'lom ona va bola" yili davlat dasturi. T. 2010-y
4. Asqarova U. M va bosh. Pedagogika T. 2008 y
5. A Avloniy "Turkiy guliston- yoxud axloq". "Avesto" T. Sharq-2002- y
6. Davlatshin M. "Yosh davrlar va pedagogik psixologiya" T. 2004
7. Kaykovus. "Qobusnomा" T. Istiqlol nashriyoti 1994 y
8. gazeta.uz 2018.25.07
9. "Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy fazilatlarning o'rni" -Toshkent "Adolat - 2016"182-189-b



# International Journal for Innovative Engineering and Management Research

A Peer Reviewed Open Access International Journal

[www.ijiemr.org](http://www.ijiemr.org)

ПОВЫШЕНИЕ ДУХОВНОСТИ В  
СЕМЬЕ - КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР В  
ВОСПИТАНИИ ЗДОРОВОГО  
РЕБЕНКА И РАЗВИТОГО  
ПОКОЛЕНИЯ

Урокова Шарофат Сайдкул кызы

Преподаватель ТерГУ

*Аннотация:* В статье подчеркивается, что продолжение наших национальных ценностей - повышение морального духа семьи - является ключевым фактором в воспитании здорового ребенка и гармонично развитого поколения.

**Ключевые слова:** семья, духовность, национальная гордость, любовь, патриотизм, верность, гордость, воспитание, счастье, обычаи и традиции, ценности.